ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

УДК: 528

TEXNOPARK QURILISHIDA BAJARILADIGAN TOPOGRAFO-GEODEZIK ISHLAR, ULARNING AN'NAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI

Saidov Baxtiyorjon Mamasoliyevich
TAQU dotsent v.b.
Email: baxtiyorjons1987@gmail.com.,
Jumaboyev Saloxiddin Doniyor o'g'li
TAQU 4-kurs talabasi
saloxiddin_jumaboyev@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, texnopark va sanoat hududlarini loyihadan joyga ko'chirish, ularni barpo qilishda bajariladigan geodezik ishlar, ularning aniqliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnopark va sanoat hududlari, Loyihani joyga ko'chirish, loyihaviy koordinatalari, GPS texnologiyasi, marka, topografik plan, obyekt, rekonstruksiya, profillar.

Аннотация: В статье представлена информация о геодезических работах, выполняемых при переносе технопарков и промышленных территорий с проекта на площадку, их строительстве и точности.

Ключевые слова: технопарк и промышленные зоны, перемещение проекта на место, координаты проекта, технология GPS, брендинг, топографический план, объект, Реконструкция, профили.

Annotatsiya: The article presents information on geodetic works carried out during the transfer of technology parks and industrial areas from the project to the site, their construction and accuracy.

Keywords: technopark and industrial zones, project relocation, project coordinates, GPS technology, branding, topographic plan, facility, Reconstruction, profiles.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda rivojlanish va barpo etish juda tez olib borilayotgan davlatlardan hisoblanadi. Respublikaning barcha viloyat, tuman va hatto chekka qishloq hududlarida ham qurilish va qayta ta'mirlash ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Davlatimiz raxbari tomonidan so'ngi yillarda Respublikamizning barcha shahar va qishloq joylarida turli xajmdagi ishlab chiqarish va sanoat hududlarini tashkil etish, ularga xorijiy davlatlar bilan sherikchilikda investitsiyalar jalb qilish jarayonlariga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Bunday katta investitsiyali rejalar va topshiriqlarni amalga oshirish maqsadida Toshkent shaxri hususan, barcha viloyatlarda, ularning markazlarida yoki qishloq xo'jaligi yerlari xisobidan ham katta-katta maydonga ega bo'lgan texnoparklar va sanoat hududlari qurilib foydalanib kelinmoqda.

Texnopark– o'zaro, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiluvchi, tadbirkorlik, investitsiya faoliyatini va ilmiy faoliyatni yuritish maqsadida zamonaviy texnologik va tashkiliy muhitni shakllantiruvchi ilm-fan va ta'limning tijorat va notijorat tashkilotlari, moliya institutlari va tadbirkorlarning integratsiyalashuvi shaklidir.

Yurtimizda yuqorida qayd etilgan texnopark yoki sanoat hududlarini qurish esa o'z navbatida katta sarf-xarajat, yetuk malakaga ega bo'lgan loyihachi va quruvchilar bilan ishlashni talab etadi. Shu bilan bir qatorda loyihani joyga ko'chirish, qurilish obyektlarining topografik planlarini tuzish,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

joyni geodezik koordinatalar va balandliklar bilan ta’minlash ishlarini mujassamlashtirgan geodezik ishlarni ham.

Har qanday qurilayotgan bino-inshootlar, katta maydondagi texnopark, sanoat hududlari oldindan puxta ishlab chiqilgan loyihalar va hisob-kitoblar asosida barpo etiladi. Shu bilan bir qatorda, qurilish jarayonida bino-inshootlarning qurilishidagi turli geodezik o‘lchov va nazorat ishlari ham eng muhim bosqichdir.

Hozirgi zamonaviy texnopark va sanoat hududlari tarkibida bir qator qo‘shimcha bino-inshootlar qurilishi ham inobatga olingan. Umuman olganda, texnoparklar, sanoat hududlari va ularning tarkibidagi har qanday turdagi bino-inshootlarning qurilishi bir qator yuqori aniqlikdagi geodezik ishlar bajarilishini talab etadi.

Tuzilgan loyihani tanlangan obyektga qanchalik mos kelishini aniqlash maqsadida obyektda iqtisodiy va injenerlik qidiruv ishlari bosqichma-bosqich olib boriladi. Bunday qidiruvlar tegishli tashkilotlar tomonidan o‘tkazilib ularni xulosa va hisobotlari tayyorlanadi.

Shundan so‘ng, texnopark va sanoat hududlarini loyihalarini joyga ko‘chirish maqsadida geodezik o‘lchov ishlari bajariladi. Undan so‘ng bino-inshootning loyihadagi asosiy va yordamchi o‘qlarini joyda qurish uchun geodezik o‘lchash ishlari ham olib boriladi.

Loyihani joyga ko‘chirish uchun zarur bo‘lgan asosiy hujjatlar quyidagilardan iborat:

Inshootning bosh plani 1:500- 1:2000 masshtabda tuzilgan bo‘lib, topografik asosda barcha loyihaviy imoratlar, bosh nuqtalarning loyihaviy koordinatalari va xarakterli tekisliklarning otmetkalari ko‘rsatiladi;

Ishchi chizmalar-yirik masshtablarda inshootning barcha qismlari planlari, qirqimlari va profillari beriladi;

Vertikal tekislash loyihasi 1:1000-1:2000 masshtabda tuzilgan bo‘lib, joyning tabiiy relefini loyihaviy yuzaga o‘zgartirish loyihasi hisoblanadi.

Qurilish jarayonidagi loyihani joyga ko‘chirish uchun quyidagi bosqichda geodezik ishlar amalga oshiriladi:

a) loyihani analitik hisoblash;

b) ishchi chizmalarni tuzish;

v) geodezik ishlarni bajarish loyihasini ishlab chiqish.

Loyihani joyga ko‘chirish, inshootni loyihalash usuliga bog‘liq bo‘lib, bunday an’anaviy usullar quyidagilardan iborat: analitik, grafik-analitik va grafik.

Analitik usulda barcha loyihaviy ma’lumotlar matematik hisoblashlar orqali topiladi.

Ko‘p holatda grafik-analitik usul qo‘llaniladi. Bu usulda boshlang‘ich ma’lumotlarning bir qismi grafik usulda, qolgan ma’lumotlar esa analitik usulda aniqlanadi.

Agarda inshoot loyihasi joyda mavjud binolar bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, u holda barcha loyihaviy masalalar grafik usulda yechiladi.


Bu usullarni qo‘llash quyidagi shartlarga bog‘liq:

- loyihalanadigan inshoot maydoni tomonlarining perpendikulyarligi va paralelligiga qo‘yiladigan texnik talablar;
- loyihalash usuli;
- joyning topografik sharoiti;
- loyihalashda qo‘llanilgan plan turlari.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6



1-shakl. Loyihani joyga ko‘chirishning chiziqli kesishtirish usuli

Bu shartlarga qarab loyihani joyga ko‘chirish usullardan birini qo‘llash mumkin.

Loyihani joyga ko‘chirishning yuqorida keltirilgan an’anaviy usullari bilan birga zamonaviy geodezik usullarini ham ta’kidlash mumkin.

Geodezik nuqtai nazardan texnopark va katta maydondagi istiroxat maskanlari uchun 2-5 mm aniqliklar talab etiladi.

Nivelirlash natijasida yo‘l bog‘lanmasligi klass aniqligidan kelib chiqib hisoblanadi va taqqoslanadi. Endi esa biz yo‘riqnoma talab etgan chekni aynan shu yo‘l uchun (1) formula orqali hisoblaymiz va yuqoridagi bog‘lanmaslik bilan solishtirib ko‘ramiz.

$$f_h = 20\sqrt{L}; \qquad (1)$$

Yuqoridagi formuladan bog‘lanmaslik belgilangan cheklidan oshmaganligi nivelir yo‘lining klass talabiga mos kelishini ifodalaydi.

Loyihaviy otmetkasi berilgan nuqtani joyga ko‘chirish.

Texnoparklar qurilishida loyihaviy otmetkalar joyga geometrik nivelirlash usuli bilan ko‘chiriladi.

Buning uchun nivelirni yaqinda joylashgan reper va otmetka uzatilishi kerak bo‘lgan B nuqta oraligiga o‘rnatib, reperga o‘rnatilgan reykadan a sanoq olinadi Asbob gorizonti AG=HRp+a hisoblanadi va loyihaviy sanoq b aniqlanadi. B nuqtaga reyka o‘rnatiladi va nivelirning gorizontal iplar to‘ri b sanoq bilan kesishguncha reyka vertikal yo‘nalishda harakatlantiriladi. Reykaning ostki qismi loyihaviy otmetka o‘rnini ko‘rsatadi va joyda loyihaviy nuqta qoziq qoqish yo‘li bilan belgilanadi.

Texnopark va sanoat hududlaridagi bino va inshootlarni barpo qilishda bajariladigan geodezik ishlarda qo‘llaniladigan asboblar va ularni xaraketristikasi ham juda muhimdir.

Hozirgi ishlab chiqarilgan elektron taxeometrlar bir vaqtning o‘zida gorizontal va vertikal burchaklarni, masofalarni yuqorin aniqlik bilan o‘lchash imkonini beradi.

Elektron taxeometrlar o‘lchash - hisoblash majmuasidan iborat bo‘lib, unga ixcham masofa o‘lchash elektron dalnomeri, gorizontal va vertikal burchaklarni o‘lchab, natijasini tablo (monitor)ga chiqarib va birdaniga xotiraga yozib qayd qiluvchi elektron moslama, hamda natijalarni dastlabki ishlab chiqish uchun kichik kompyuterlar kiradi. Elektron taxeometrlar eng ommaviy bo‘lib, bugungi kunda ko‘p chet el firmalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda va ular sistemali hamda kundalik syomkalarda ishlatiladigan asboblarga bo‘linadi va bir-biridan aniqligi, imkoniyatlari hamda avtomatlashtirilgan darajasiga qarab farq qiladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Hozirgi vaqtda geodezik qurilmalar bozorida elektron taxeometrlar keng miqiyosda taqdim etilmoqda. Jumladan Shveytsariya va AQSHda faoliyat yuritayotgan Leica va TRIMBLE kompaniyalarining maxsulotlarini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu kompaniyalar jahon bozorida o‘z mavqeyiga ega bo‘lib, ishlash aniqligi va interfeys soddaligi bilan boshqa kompaniyalar maxsulotlaridan ajralib turadi. Bundan tashqari xozirda bir paytni o‘zida robotik elektron taxeometr va GNSS vazifasini bajaruvchi qurilma taqdim etib raqobatdosh kompaniyalarni ortda qoldirmoqda.

Bunday taxeometrlar burchaklarni ± 5-10″, chiziqlarni ±3-5 mm aniqlik bilan o‘lchashni ta’minlaydi.

Ushbu guruhning bir qator taxeometrlarida saqlab qolish xotirasi cheklangan bo‘ladi, ichki xotira yoki ma’lumotni faqat 1000 tagacha nuqta (piket) uchun saqlash imkonini beruvchi cheklangan xotiraga ega.

Otmetkalarni aniqlash va nisbiy balandliklarni o‘lchashga asoslangan eng yuqori aniqlikldagi raqamli nivelirlar yordamida geometrik nivelirlashni avtomatlashtirishga erishiladi. An’anaviy optik nivelirlardan farqli o‘laroq, raqamli nivelirlarda ishlash osonroq, ya’ni nivelirdan olingan sanoq, bevosita asbobning xotirasiga avtomatik tarzda kiritilib boriladi.


Raqamli nivelirlar bilan avtomatik ravishda o‘lchashlarni amalga oshirish mumkin: temir yo‘l, daryolar va tekislangan nuqtalar orasidagi masofalar va nisbiy balandliklarni aniqlash imkoni mavjud. Ichki xotira bir qancha o‘lchash natijalarni saqlash uchun mo‘ljallangan (8000-10000 nuqta).

O‘lchangan ma’lumotlar o‘rnatilgan dasturiy ta’minot yordamida qayta ishlanishi mumkin. Raqamli nivelirda an’anaviy optik nivelirlar bilan solishtirganda, ishlash imkoniyatlari 50 % gacha ko‘proq mahsuldorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, raqamli nivelirlar kompensatorlar bilan jihozlangan.

Raqamli nivelirlar uchun shtrix-kodli maxsus reykalardan foydalaniladi.

Butun kuzatish davri uchun deformatsiya nuqtalarining belgilari dastlabki o‘lchash natijalariga yoki ko‘rsatkichlar guruhiga nisbatan aniqlanadi.

GPS texnologiyasi yordamida loyihani joyga ko‘chirish. GPS texnologiyasi (Global Positioning System) qurilish, hamda rekonstruksiya loyihasini joyga ko‘chirish jarayonini yuqori aniqlik bilan bajarishni ta’minlaydi.



2-Rasm. GPS texnologiyasi yordamida loyihani joyga ko‘chirish

GPS texnologiyasining ahamiyati:

• GPS (Global Positioning System) texnologiyasi loyihani joyga ko‘chirish jarayonida yuqori aniq koordinatalarni ta’minlaydi;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

• RTK (Real-Time Kinematic) tizimi: Loyihani joyga ko‘chirishda RTK GPS texnologiyasi 1 sm gacha aniqlikda koordinatalarni olish imkonini beradi;

• Differensial GPS (DGPS): Bu usul katta maydonlar uchun ancha mos kelib, o‘lchash jarayonida yuqori aniqlikni kafolatlaydi;

• Boshqaruv nuqtalari: GPS yordamida dastlabki boshqaruv nuqtalari aniqlanib, loyihaning hududga to‘g‘ri joylashtirilishi ta’minlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, har qanday qurilish jarayonida loyihani kerakli aniqlikda joyga ko‘chirish binolarni uzoq muddat xizmat qilish sifatini ta’minlashda muhim qadam hisoblanadi. Loyihani joyga ko‘chirishda an’anaviy usullarga nisbatan zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa GPS va uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish, jarayonning aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, ish jarayonidagi sarf-xarajatlarni qisqartiradi, ishlovchilarga bir qancha qulayliklar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudova Z., Muxitdinov T. 2023 y. “Bino va inshootlar qurilishiga qo‘yilayotgan talablar”. Amaliy qo‘llanma. O‘zbekiston. Toshkent.

2. Xalilov D.B., Tojiddinov A.I. 2023 y. “Bino va inshootlar qurilishida bajariladigan geodezik bog‘lanish (засечка) ishlar”. Me‘morchilik va qurilish muammolari (ilmiy texnik jurnali) Maqola. Maxsus son. 596-599 b.

3. Buzrukov Z.S. 2019 y. “Gruntlar mehanikasi, zamin va poydevorlar” O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston. Toshkent.

4. Avchiev SH.K. 2018 y. “Qurilish injenerlik geodeziyasi”. Yosh kuch nashriyoti. O‘zbekiston. Toshkent.

5. Назаров Б.Р. 2020 г. “Строителная инженерная геодезия”. Учебник. 1-книга. Узбекистан. Ташкент.